

IKKINCHI TILNI O'RGANISHDA TINGLASH MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Gaforov Iqboljon Uktamovich

Farg'ona Davlat Universiteti,

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti,

Ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Mashrabjonova Diyora Xolmatjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti,

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, 4-bosqich talabasi

husanovadiyora2@gmail.com +998910771122

Annotatsiya: *Ushbu maqola ikkinchi tilni o'rganishda tinglash mahoratida uchraydigan ba'zi muammolar haqida tariflaydi. Bundan tashqari maqolada o'quvchilar duch keladigan muammolarga yechimlar ham sanab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *muammolar, yechimlar, ikkinchi til, birinchi til, so'z turkumlarni*

Hozirgi kunda ikkinchi tilni o'rganishda o'quvchilar ichida ko'p uchraydigan muammolar bor. Ularda ikkinchi tilni o'rganishda tinglash, yozish, o'qish va gapirish eng muhim mahoratlardir. Bu mahoratlarning har birining qonun qoidasi muammosi va shunga ko'r bu muammolarga yechimi ham mavjud. Ba'zi o'quvchilar tinglab tushuninishda muammolarga uchraydi. Bunday muammolarga yechimlar haqida bir qator sanab o'tamiz. Aslida eng katta muammo bu o'quvchilar birinchi til ya'ni o'z ona tilida yaxshi emasligi chunki tilda birinchi tilda yaxshi bòla olish bu boshqa tillarda ham qiynalmaslik uchun osonlik yaratadi. Bundan tashqari o'quvchilar diqqatlarini jamlayolmasligi boshqa narsalar hayoliga kelishi va eshitayotgan narsasi o'tib ketishi va uni tushunmay qolishi juda ham ko'pchilikda uchraydigan salbiy muammolardan biridir. Yana eslatib o'tamiz o'quvchilarda uchraydigan olmosh, so'z turkumlarni, kabi narsalarni bilmaslik bunday holda o'quvchilar so'z tartibida qanday so'z turkumlarni qo'llashni bilishmaydi. Va shuningdek biz bilmagan mavzular ham uchraydi. Bular reklama, aviatsiya, mehmonxona, muzey, kasalxona va hokazo. Bunday mavzular haqida aslida o'quvchilar birinchi tilda ham bilishmaydi. Shu kabi mavzularni eshitishsa umuman tushunmaslik holati kelib chiqadi. Bu muammoni yechish uchun o'quvchilar shunday joylarda qatnashsa yoki shu kabi mavzularni birinchi tilda ko'proq eshitib mashq qilsa ular boshqa tillarda qiynalmasliklari mumkin. Yana aytshimiz mumkin o'quvchilar orasida harflar ketma ketligda aytilsa ular yozishda doim xatoliklarga, o'rnini alishtirib yozishga duch kelishadi. Bunday holatlarda o'quvchilar o'z bilimlariga tayangan holda bu harflarni birinchi aytganda ular o'sha harflarni birgalikda qaytarib va yodlab yoza olsa yaxshiroq natijaga erisha olishadi. So'ng ularda kamroq hatolar ketma ketligi sodir bo'ladi. Va yana o'quvchilar orasida raqamlarni adashtirish holati ham juda ko'p uchraydi. Misol uchun o'n besh va ellik, o'n olti va oltmish, o'n yetti

va yetmish, o'n sakkiz va sakson, o'n to'rt va qirq, o'n uch va o'ttiz va hokazolar. Bunday muammolarga yechimlar ham bor. Bu holatda aytilgan raqamlar tallaffuzi bo'yicha ko'proq shug'ullanish va raqamlarni aytilishiga qattiq diqqat qaratish kerak. Raqamlar ketma ketligida aytilsa ular aytilgandan so'ng o'quvchilar birgalikda birin ketin yodlab o'sha raqamlarni qaytarishi kerak. Shu holatda o'quvchilar ko'proq takrorlasa va qayta qayta urinib ko'rsa bu muammoning ham yechimi topiladi. Keyingi muammomizdan biri o'quvchilar ma'no o'zgartirib yuboradigan urg'u tushish holati haqida tushunchaga ega emasligi, bu vaziyatda yechim o'quvchilar ma'no farqlash urg'u haqida qonun qoidalarni o'rganishi zarur. Urg'u bo'yicha qo'l yozma qoida kitoblari mavjud. O'quvchilar bu kitoblarni o'qisa va o'z ustida muntazam ravishda ishlasa bunday holatdagi muammolarga ham yechimlar topiladi va o'quvchilar hech qanday qiyinchiliklarsiz yaxshi natijalar olaolishadi.

Aslida bu kabi muammolarni yechish yo'llari juda ham ko'p. Bunday muammolarga yechimlar o'quvchilar o'z ustida muntazam ravishda ishlasa, qattiq harakat qilsa bu kabi muammolar yechimi yanada osonlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lanham, MD: Rowman & Littlefield. Maklaflin, B. (1990). "Ongli" va "ongsiz" o'rganish.
2. McNamara, T. (2010). Ikkinchi tilni bilish darajasini baholash.
3. M. Bernsda (Tahr.), Amaliy tilshunoslikning ixcham ensiklopediyasi (105-112-betlar).
4. Oksford, Buyuk Britaniya: Elsevier. McNamara, T. va Roever, C. (2006). Til testi: ijtimoiy jihat.
5. Xoboken, NJ: Wiley-Blackwell. 32 Share Mendelsohn, D. (1998). Tinglashni o'rgatish. Amaliy tilshunoslikning yillik sharhi, 18, 81-101.
6. Messik, S. (1989). Yaroqlilik. R. Linn (Ed.), Ta'lim o'lchovi (13-103-betlar). Nyu-York, Nyu-York:
7. Mitchell, R., Myles, F., & Marsden, E. (2013). Ikkinchi tilni o'rganish nazariyalari (3-nashr).